



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 9-22 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### SABZAVOT-POLIZ MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH VA EKSPORTINI BOSHQARISHNING AXBOROT-TAHLIL TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH



**Absamatov Davron Absamatovich**  
ISFT instituti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va ularning eksport jarayonlarini samarali boshqarishda axborot-tahlil ta'minotini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Jahon bozorida raqobatning kuchayishi va eksport faoliyatiga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi sharoitida korxonalarda zamonaviy axborot tizimlari va tahliliy usullarni joriy etishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot davomida qayta ishlash korxonalarida mavjud axborot-tahlil tizimining holati tahlil qilinib, uning kamchiliklari aniqlangan. Maqolada boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkor, aniq va ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, jumladan, integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etish orqali eksport samaradorligini oshirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, mahsulotlarni qayta ishlash zanjirida xarajatlarni optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tahliliy yondashuvlar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalari sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish faoliyatini boshqarishda axborot-tahlil ta'minotini takomillashtirish orqali korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** axborot-tahlil ta'minoti, boshqaruv hisobi, sabzavot-poliz mahsulotlari, qayta ishlash, eksport, raqamli texnologiyalar, samaradorlik.

**Abstract.** This article studies the issues of improving information and analytical support in the effective management of vegetable and melon processing and export processes. The importance of introducing modern information systems and analytical methods at enterprises in the context of increased competition in the world market and increasing requirements for export activities is substantiated. During the study, the state of the existing information and analytical system at processing enterprises was analyzed and its shortcomings were identified. The article develops directions for increasing export efficiency through the formation of a fast, accurate and reliable database for making management decisions, the use of digital technologies, including the introduction of integrated information systems. Analytical approaches aimed at optimizing costs and increasing competitiveness in the product processing chain are also proposed.

The results of the study serve to increase the economic efficiency of enterprises by improving information and analytical support in the management of vegetable and melon processing and export activities.

**Keywords:** information and analytical support, management accounting, vegetable and melon products, processing, export, digital technologies, efficiency.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности информационно-аналитической поддержки в управлении процессами

переработки и экспорта овощей и дынь. Обосновывается важность внедрения современных информационных систем и аналитических методов на предприятиях в условиях усиления конкуренции на мировом рынке и повышения требований к экспортной деятельности. В ходе исследования проанализировано состояние существующих информационно-аналитических систем на перерабатывающих предприятиях и выявлены их недостатки. В статье разработаны направления повышения эффективности экспорта за счет формирования быстрой, точной и надежной базы данных для принятия управленческих решений, использования цифровых технологий, включая внедрение интегрированных информационных систем. Также предложены аналитические подходы, направленные на оптимизацию затрат и повышение конкурентоспособности в цепочке переработки продукции.

Результаты исследования служат повышению экономической эффективности предприятий за счет повышения информационно-аналитической поддержки в управлении процессами переработки и экспорта овощей и дынь.

**Ключевые слова:** информационно-аналитическая поддержка, управленческий учет, овощная и дынная продукция, переработка, экспорт, цифровые технологии, эффективность.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv va jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va ularni tashqi bozorlarga eksport qilishni samarali tashkil etish muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sabzavot-poliz mahsulotlari mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va valyuta tushumlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, mazkur tarmoqda boshqaruv samaradorligini oshirish, zamonaviy axborot-tahlil ta'minotini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish jarayonlari ko'p bosqichli va murakkab tizim bo'lib, ularni samarali boshqarish uchun aniq, tezkor va ishonchli axborotlarga ehtiyoj yuqori. Mazkur jarayonlarda axborot-tahlil ta'minotining etarli darajada rivojlanmaganligi, ma'lumotlarni qayta ishlashdagi uzilishlar va tahlil mexanizmlarining samarasizligi boshqaruv qarorlarining sifatini pasaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, axborot-tahlil ta'minotini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv hisobining ilg'or usullarini joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Bugungi kunda jahon amaliyotida qayta ishlash sanoati va eksport faoliyatini boshqarishda integratsiyalashgan axborot tizimlari, raqamli platformalar va tahliliy instrumentlardan keng foydalanilmoqda. Ammo mazkur tajribalarni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish va ularni amalga joriy etishda muayyan muammolar mavjud. Xususan, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish tizimining etarlicha rivojlanmaganligi, axborot resurslarining parchalanganligi va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarining kamligi bu sohada ilmiy-amaliy tadqiqotlarni talab etadi.

Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolaning asosiy maqsadi sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish faoliyatini boshqarishda axborot-tahlil ta'minotini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish hamda uni samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish faoliyatini boshqarishda axborot-tahlil ta'minotini takomillashtirish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda chet el va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Chet el olimlaridan Robert S. Kaplan va Anthony A. Atkinson boshqaruv hisobida axborotning strategik ahamiyatini asoslab berib, samarali qaror qabul qilishda integratsiyalashgan axborot tizimlaridan foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar. Ular boshqaruv hisobini korxonada faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil etishda muhim axborot manbai sifatida baholaydilar. Shuningdek, Colin Drury o'z tadqiqotlarida boshqaruv hisobida xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish usullarini, jumladan, "marginal costing" va "absorption costing" tizimlarini chuqur tahlil qilib, ularning axborot-tahlil ta'minotidagi o'rnini asoslab bergan. Uning fikricha, xarajatlar to'g'risidagi aniq va tezkor ma'lumotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimlarini takomillashtirish masalalari Michael Porter tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, u raqobat ustunligini ta'minlashda axborot tizimlarining rolini alohida ta'kidlaydi. Uning konsepsiyalariga ko'ra, korxonalarda axborot oqimlarini samarali boshqarish eksport faoliyatida ustunlikka erishish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilishni tashkil etish bo'yicha tadqiqotlarda John W. Mellor agrar sektorda qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish, qayta ishlash darajasini oshirish va bozor infratuzilmasini takomillashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, samarali axborot-tahlil tizimi agrar mahsulotlar eksportining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Mahalliy olimlardan prof. B. Hasanov [3] boshqaruv hisobining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etib, axborot-tahlil ta'minoti korxonada boshqaruvining ajralmas qismi ekanligini asoslab bergan. U, ayniqsa, "direkt-kosting" tizimining afzalliklarini ko'rsatib, uni amaliyotga joriy etish korxonalar samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi.

Prof. A. Pardaevning ilmiy yondashuviga ko'ra, boshqaruv hisobi doirasida shakllantiriladigan axborotlar tashkilotda boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu axborotlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, shuningdek resurslardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi<sup>1</sup>. Muallif tadqiqotlarida qayd etilishicha, boshqaruv hisobining zamonaviy usullari, xususan, xarajatlarni to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish hamda takomillashtirilgan kalkulyatsiya mexanizmlari mahsulot tannarxini aniqlash, tahlil qilish va istiqbolli rejalashtirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mazkur usullar asosida shakllangan axborot oqimlari korxonada faoliyatini kompleks baholash, uning ichki imkoniyatlarini aniqlash va strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi<sup>1</sup>. Natijada, boshqaruv hisobi axboroti korxonada boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishda strategik resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan S. Qurbonovning ilmiy qarashlariga muvofiq, marjinal costing usuli mahsulot tannarxini hisoblashda asosan

o'zgaruvchan xarajatlarga tayanadigan yondashuv bo'lib, doimiy xarajatlar alohida hisobga olinadi va mahsulot tannarxi tarkibiga to'liq kiritilmaydi. Shu bilan birga, A.Mirzaev tomonidan mazkur usul ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va doimiy toifalarga ajratishga asoslangan, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni baholash imkonini beruvchi muhim instrument sifatida talqin etiladi. D.S. Tashnazarova esa o'z tadqiqotlarida marjinal kosting usulining mohiyatini mahsulot ishlab chiqarishda bevosita sarflangan resurslar, jumladan mehnat, xomashyo va energiya xarajatlarini tannarxga kiritish orqali ifodalaydi, doimiy xarajatlar esa mustaqil ravishda hisobga olinishini ta'kidlaydi. Keltirilgan ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, marjinal kosting usuli korxonada faoliyatida xarajatlar tarkibi va ularning o'zgarish dinamikasini chuqur o'rganish imkonini yaratadi. Shuningdek, mazkur usul asosida shakllantirilgan axborotlar tezkor va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tannarxni samarali boshqarish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida axborot tizimlarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va tahliliy usullarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Biroq mavjud ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish jarayonlarida axborot-tahlil ta'minotini kompleks ravishda takomillashtirish, uni axborot tahlil ta'minoti talablari asosida integratsiyalash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari etarli darajada chuqur o'rganilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

### METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksportini boshqarishda axborot-tahlil ta'minotini takomillashtirish masalasi tizimli, iqtisodiy-statistik va tahliliy yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini agrar sohada ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, eksport salohiyati va bozor axborotlarini boshqarish bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlar, iqtisodiy qonuniyatlar hamda zamonaviy raqamli boshqaruv tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash, saqlash, saralash, qadoqlash va tashqi bozorlarga yetkazib berish bosqichlari yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bunda mahsulot harakati zanjirining har bir bosqichida zarur bo'ladigan axborot oqimlari, statistik ma'lumotlar, bozor talabi, narx dinamikasi, eksport geografiyasi, logistika xarajatlari va sifat standartlari kabi omillar tahlil qilindi. Shu orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot-tahlil ta'minotining o'rni va samaradorligini aniqlashga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot obyekti sifatida sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar, qayta ishlash korxonalari, eksportyor tashkilotlar hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi logistika va axborot infratuzilmasi tanlandi. Tadqiqot predmeti esa ushbu tizimda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot-tahlil mexanizmlari, ularni shakllantirish, qayta ishlash va amaliyotga joriy etish jarayonlaridan iborat.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-statistik tahlil, tizimli tahlil, SWOT-tahlil, omilli tahlil, ekspert baholash hamda iqtisodiy-matematik

modellashirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy abstraksiyalash usuli orqali sabzavot-poliz mahsulotlari eksportini boshqarishda axborot ta'minotining nazariy mohiyati ochib berildi. Taqqoslash va guruhlash usullari yordamida qayta ishlash va eksport jarayonlarida mavjud holat, hududiy farqlar, mahsulot turlari hamda eksport yo'nalishlari bo'yicha tafovutlar aniqlashtirildi.

Iqtisodiy-statistik tahlil usuli asosida sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirish hajmi, qayta ishlash darajasi, eksport ko'rsatkichlari, eksport narxlari, tashqi bozorlar ulushi va logistika xarajatlari o'rganildi. Omilli tahlil orqali eksport hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar - mahsulot sifati, qayta ishlash quvvati, saqlash infratuzilmasi, sertifikatlash tizimi, transport-logistika imkoniyatlari, valyuta tushumi va tashqi bozor talabi o'rtasidagi bog'liqlik baholandi.

Tizimli tahlil yondashuvi sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish jarayonini o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat kompleks tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Ushbu yondashuv asosida ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi, eksportyor, logistika xizmati, davlat boshqaruv organlari va tashqi bozor ishtirokchilari o'rtasidagi axborot almashinuvi mexanizmlari tahlil qilindi. Natijada axborot-tahlil ta'minotida mavjud bo'lgan muammolar, jumladan, ma'lumotlarning tarqoqligi, real vaqt rejimidagi monitoringning yetarli emasligi, eksport bozorlariga oid prognoz axborotlarining cheklanganligi va raqamli platformalardan foydalanish darajasining pastligi aniqlashga yo'naltirildi.

SWOT-tahlil usuli yordamida sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksportini boshqarish tizimining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tashqi xavf-xatarlar baholandi. Ekspert baholash usuli esa soha mutaxassislari, eksportyorlar, qayta ishlash korxonalarini vakillari va agrar boshqaruv organlari fikrlarini umumlashtirish orqali axborot-tahlil ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda axborot-tahlil ta'minotining samaradorligini baholash uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalanildi. Jumladan, qayta ishlangan mahsulotlarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar hajmi, eksport geografiasining diversifikatsiya darajasi, mahsulotni saqlash va tashishdagi yo'qotishlar miqdori, qayta ishlash korxonalarining quvvatlardan foydalanish darajasi, tashqi bozor talabiga mos mahsulot yetkazib berish tezligi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborotdan foydalanish samaradorligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Statistika agentligi ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda sabzavot-poliz mahsulotlari eksporti bilan bog'liq amaliy ma'lumotlar tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarini shakllantirishda induksiya va deduksiya usullaridan ham foydalanildi. Induksiya usuli orqali amaliy ko'rsatkichlar, statistik ma'lumotlar va hududiy tajribalar asosida umumiy xulosalar ishlab chiqildi. Deduksiya usuli esa nazariy qarashlar va ilmiy tamoyillar asosida sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksportini boshqarishda axborot-tahlil ta'minotini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish tizimida boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlash darajasini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda raqamli, statistik va tahliliy mexanizmlar asosida takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratildi. Ushbu metodologik yondashuv mavzuning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish bilan birga, uning amaliy jihatdan samarali yechimlarini aniqlashga xizmat qiladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va ularni tashqi bozorlarga eksport qilish bilan shug'ullanuvchi yirik agrosanoat korxonalarini faoliyatida boshqaruv hisobi tizimini takomillashtirish, xususan, uning axborot-tahlil ta'minotini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot doirasida mazkur sohada boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini ilmiy asoslash, axborotlarni shakllantirish, qayta ishlash va tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan nazariy-uslubiy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqildi.

Xususan, qayta ishlovchi korxonalar faoliyati misolida sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlarida xarajatlar hisobini yuritish amaliyoti chuqur tahlil qilinib, mahsulot tannarxini shakllantirishda mavjud muammolar aniqlandi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida marginal costing usulini joriy etish va uni korxonalar hisob siyosatida aks ettirish orqali xarajatlar hisobini aniqlashtirish, shaffofligini oshirish hamda boshqaruv qarorlari uchun ishonchli axborot bazasini shakllantirish mexanizmi taklif etildi. Bu yondashuv xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy turlarga ajratish asosida tannarxni hisoblashni soddalashtirish bilan birga, ularning dinamikasini doimiy monitoring qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning muhim ilmiy natijalaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida mahsulot tannarxini hisoblashda o'zgaruvchan xarajatlarni partiyalar kesimida aniqlash va tahlil qilishga mo'ljallangan axborot-tahlil modeli ishlab chiqildi. Mazkur model qayta ishlash jarayonlarining texnologik xususiyatlari va mahsulotlarning mavsumiyligini inobatga olgan holda xarajatlar tuzilmasini chuqur tahlil qilish imkonini yaratadi. Natijada, har bir partiya bo'yicha xarajatlar tarkibi, ularning o'zgarish tendensiyalari va tannarx shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, bu ma'lumotlar asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati kengaydi.

#### 1-jadval

### Qayta ishlash korxonalarida tanarxni hisoblashda absorption costing, standart costing va marginal costing usullaridan foydalangan holda quritilgan piyoz mahsulotining tannarxini hisoblash

Ko'rsatkichlar				Absorption Costing	Standart Costing	Marginal Costing
O'zgaruvchan xarajatlar	Miqdor	Miqdor (so'm)	Summa	Jami	Jami	Jami
Piyoz (kuzgi) kg	16	800	12 800	1 230 000 000	1 229 000 000	1 228 800 000
Elektr energiya kVt	1	893	893	150 000 000	115 000 000	85 714 286
Gaz m <sup>3</sup>	2	1 607	3 214	350 000 000	330 000 000	308 571 429
Ishbay ish haqi (piyoz tozalash uchun)	16	400	6 400	630 000 000	590 000 000	614 400 000
Qadoqlash materillari (dona)	0,07	6 000	426	40 000 000	40 000 000	40896000
<b>Jami o'zgaruvchan xarajatlar</b>			<b>23 733</b>	<b>2 400 000 000</b>	<b>2 304 000 000</b>	<b>2 278 381 714</b>

1 kg mahsulot uchun sarflangan o'zgaruvchan xarajat				25 000	24 000	23 733
Hisobot davri oxirida 1 kg mahsulot uchun sarflangan o'zgaruvchan xarajat og'ishishlar uchun buxgalteriya yozuvi (+;-) bo'lishi mumkin					1 000	
Doimiy xarajatlar	Miqdor	Miqdor (so'm)	Summa	Jami	Jami	Jami
Vaqtbay ish haqi (Direktor) 1 oyga	1	14 000 000	14 000 000	14 000 000	14 000 000	14 000 000
Vaqtbay ish haqi (Buxgalter) 1 oyga	2	10 000 000	20 000 000	20 000 000	20 000 000	20 000 000
Vaqtbay ish haqi (Texnolog) 1 oyga	3	12 000 000	36 000 000	36 000 000	36 000 000	36 000 000
Vaqtbay ish haqi (Xodimlar) 1 oyga	10	6 000 000	60 000 000	60 000 000	60 000 000	60 000 000
I/ch bilan aloqador A.V amortizatsiyasi 1 oyga	30	254 000 000	254 000 000	254 000 000	254 000 000	254 000 000
<b>Jami doimiy xarajatlar</b>				<b>384 000 000</b>	<b>384 000 000</b>	<b>384 000 000</b>
1 kg mahsulot uchun sarflangan doimiy xarajat				4 000	4 000	4 000
<b>Mahsulot tannarxi</b>				<b>29 000</b>	<b>28 000</b>	<b>27 733</b>
1 kunda o'rtacha ishlab chiqarilgan mahsulot, kg	30	3 200	96 000	96 000	96 000	96 000
1 kg mahsulotning sotish narxi				38 400	38 400	38 400
1 kg mahsulotdan olinadigan yalpi daromad				9 400	10 400	10 667

\*Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Jadval ma'lumotlari asosida piyoz mahsulotini qayta ishlash jarayonida tannarxni shakllantirishning uch xil usuli - absorption costing, standard costing va marginal costing usullarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi. Ushbu usullar orqali xarajatlar tarkibi, mahsulot tannarxi hamda olinadigan foyda ko'rsatkichlari o'zaro solishtirildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'zgaruvchan xarajatlar hajmi usullar kesimida sezilarli farqlanishi kuzatildi. Xususan, absorption costing usulida jami o'zgaruvchan xarajatlar 2 400 000 000 so'mni tashkil etgan bo'lsa, Standard costing usulida bu ko'rsatkich 2 304 000 000 so'mga, marginal costing usulida esa 2 278 381 714 so'mga teng bo'lgan. Bu holat marginal costing usulida ishlab chiqarish jarayonida resurslardan nisbatan samaraliroq foydalanilganini va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, elektr energiyasi va gaz xarajatlarining kamayishi umumiy tejamkorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Bir kilogramm mahsulot uchun o'zgaruvchan xarajatlar ham mos ravishda 25 000 so'm, 24 000 so'm va 23 733 so'mni tashkil etgan bo'lib, eng past ko'rsatkich Marginal costing usulida kuzatilgan. Bu esa aynan ushbu usulda ishlab chiqarish samaradorligi yuqoriroq ekanligini bildiradi. Standard costing usuliga nisbatan ham ma'lum miqdorda iqtisod mavjudligi aniqlangan.

Doimiy xarajatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular barcha usullarda bir xil miqdorda, ya'ni 384 000 000 so'mni tashkil etadi. Bu xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaganligi sababli, har uchala usulda ham o'zgarmasdan qolgan. Natijada bir kilogramm mahsulotga to'g'ri keladigan doimiy xarajat miqdori 4 000 so'mni tashkil etgan.

Mahsulot tannarxi ko'rsatkichlari ham usullar kesimida farqlanadi. Absorption costing usulida tannarx 29 000 so'mni, Standard costing usulida 28 000 so'mni, marginal costing usulida esa 27 733 so'mni tashkil etgan. Eng past tannarx aynan marginal costing usulida shakllangan bo'lib, bu korxonaga uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Mahsulotning sotish narxi barcha usullarda bir xil - 38 400 so'm deb qabul qilingan. Shu asosda bir kilogramm mahsulotdan olinadigan yalpi daromad absorption costing usulida 9 400 so'mni, Standard costing usulida 10 400 so'mni, marginal costing usulida esa 10 667 so'mni tashkil etgan. Demak, eng yuqori foyda marginal costing usulida kuzatilmoqda. Kunlik ishlab chiqarish hajmi 96 000 kg deb olinsa, marginal costing usuli absorption costingga nisbatan kuniga 120 milliard so'mga yaqin qo'shimcha daromad keltirishi mumkinligi aniqlanadi, bu esa mazkur usulning yuqori iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, marginal costing usuli ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va foydani maksimal darajada oshirishda eng samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, standard costing usuli xarajatlarni nazorat qilish va og'ishishlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa, absorption costing usuli moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda zarur hisoblanadi. Shu sababli korxonalarda ushbu usullardan kompleks tarzda foydalanish, ayniqsa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda marginal costing usuliga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida marjinal costing usulini amaliyotga joriy etishning iqtisodiy samaradorligi ham baholandi. Sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda faoliyati tahlili natijalariga ko'ra, mazkur usulni qo'llash hisobiga joriy yilda o'tgan yilga nisbatan mahsulot tannarxi o'rtacha 10 foizga kamaygani, ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarining umumiy samaradorligi esa 6 foizga oshgani aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar marjinal xarajatlarni asosida shakllangan axborotlardan foydalanish korxonada resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida axborot-tahlil ta'minoti tizimiga "marjinal costing" usulini integratsiya qilishning nazariy asoslari ishlab chiqildi va uning amaliy samarasi isbotlandi. Jumladan, mazkur usuldan foydalanish tannarxni rejalashtirish, nazorat qilish va prognozlash jarayonlarini takomillashtirish, xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda moliyaviy natijalarni barqarorlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish bilan shug'ullanuvchi korxonalarda boshqaruv hisobi tizimini takomillashtirish, axborot-tahlil ta'minotini rivojlantirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu natijalarni barcha qayta ishlovchi korxonalarining boshqa sub'ektlari amaliyotiga ham joriy etish mumkin bo'lib, bu esa tarmoqda umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan modelga muvofiq, ishlab chiqarish xarajatlari ichida eng muhim tarkibiy qismlardan biri bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari alohida hisob obyektini

sifatida ajratiladi. Chunki mehnat resurslari ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi va ularning tannarxdagi ulushi ko'plab sanoat tarmoqlarida sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Shu bois mehnat xarajatlarini umumiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida emas, balki mustaqil schyotlarda yuritish zaruriyati yuzaga keladi.

Ushbu yondashuv doirasida mehnatga haq to'lash xarajatlari ikki asosiy yo'nalishga ajratiladi:

1. Ishbay ish haqi schyoti. Ishbay ish haqi schyoti ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bevosita bog'liq bo'lgan mehnat xarajatlarini hisobga olish uchun mo'ljallangan. Ushbu tizimda xodimlarning ish haqi ular tomonidan bajarilgan ish hajmiga qarab shakllanadi. Natijada mehnat samaradorligi va ishlab chiqarish natijasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yuzaga keladi. Mazkur schyot orqali har bir mahsulot birligi uchun sarflangan mehnat xarajatlari aniq hisoblanadi, bu esa ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini tahlil qilish, mehnat unumdorligini baholash va ortiqcha sarflarni aniqlash imkonini beradi.

2. Vaqtbay ish haqi schyoti. Vaqtbay ish haqi schyoti esa ishlab chiqarish jarayonida sarflangan ish vaqti asosida hisoblanadigan mehnat xarajatlarini aks ettirish uchun qo'llaniladi. Ushbu tizimda xodimning ish haqi uning ishlagan vaqti va lavozim tarif stavkasiga ko'ra belgilanadi. Vaqtbay ish haqi xarajatlarini alohida yuritish korxonaga ishlab chiqarish jarayonida vaqt resurslaridan foydalanish darajasini tahlil qilish, mehnat intizomini baholash va ish jarayonlaridagi samarasizliklarni aniqlash imkonini yaratadi.

Mehnatga haq to'lash xarajatlarini ishbay va vaqtbay schyotlarga ajratish orqali yoki bir vartning o'zida ikkalasidan foydalanish ishlab chiqilgan ushbu model mahsulot tannarxining shakllanish jarayonini chuqurroq ochib beradi. Bu esa korxonada boshqaruvida xarajatlar tuzilmasini aniq tahlil qilish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi.

Sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida mehnat xarajatlari ishlab chiqarish tannarxining eng muhim va sezilarli ulushini tashkil etuvchi komponentlardan biri hisoblanadi. Ushbu soha o'zining mavsumiyliги, xomashyo sifatining o'zgaruvchanligi hamda qayta ishlash jarayonlarining ko'p mehnat talab etishi bilan ajralib turadi. Shu sababli mehnatga haq to'lash tizimini to'g'ri tashkil etish va uni tannarx tarkibida aniq aks ettirish korxonada umumiy iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

## 2-jadval

**Sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida xodimlarga ish haqi to'lashning usullari<sup>1</sup>**

Mahsulot turlari	Ishbay ish haqi	Vaqtbay ish haqi	Ishbay va vaqtbay ish haqi
Piyoz		✓	✓
Sabzi		✓	
Bulg'or qalampiri		✓	
Luk porey	✓		✓

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Shivit (Ukrop)		✓	
Oshqovoq	✓		✓
Karam	✓		✓
Qovoqcha (zucchini)	✓		
Qizil lavlagi		✓	

Mazkur jadvalda sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida xodimlarga ish haqi to'lashning turli shakllari - ishbay, vaqtbay hamda aralash (ishbay-vaqtbay) tizimlarining qo'llanilishi mahsulot turlari kesimida keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar asosida mehnatga haq to'lash tizimining ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri iqtisodiy jihatdan tahlil qilinganligini ko'rish mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim mahsulotlar bo'yicha ish haqi to'lashda faqat ishbay tizimdan foydalaniladi. Bunga sabzi, bulg'or qalampiri, shivit (ukrop), qizil lavlagi kabi mahsulotlar misol bo'la oladi. Bu mahsulotlarni qayta ishlash jarayoni nisbatan oddiy va tez bajariladigan operatsiyalardan iborat bo'lib, xodimlar mehnat unumdorligini oshirish bevosita ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bog'liq. Shu sababli ishbay tizim qo'llanilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lib, u mehnat samaradorligini rag'batlantiradi va ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, ayrim mahsulotlarda vaqtbay ish haqi tizimi ustunlik qiladi yoki qo'shimcha ravishda qo'llaniladi. Bu, asosan, texnologik jarayon murakkab bo'lgan yoki sifat nazorati muhim ahamiyat kasb etadigan mahsulotlarga xosdir. Masalan, piyoz, luk porey, oshqovoq va karam mahsulotlarini qayta ishlashda ishbay tizim bilan bir qatorda vaqtbay tizim ham qo'llanilishi kuzatiladi. Bunday holatda ishchilarning faqat ishlab chiqarish hajmi emas, balki ish sifati, texnologiyaga rioya qilishi va vaqt omili ham hisobga olinadi. Natijada ishlab chiqarish jarayonida barqarorlik va sifat ta'minlanadi.

Aralash - ya'ni ishbay va vaqtbay tizim birgalikda qo'llaniladigan holatlar esa yanada samarali boshqaruv mexanizmini yaratadi. Ushbu tizim xodimlarni ham miqdor, ham sifat jihatidan rag'batlantiradi. Masalan, piyoz, luk porey, oshqovoq va karam mahsulotlarida aralash tizimdan foydalanish orqali korxonada bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnatga haq to'lash tizimini to'g'ri tanlash mahsulot turi va ishlab chiqarish texnologiyasiga bevosita bog'liq. Oddiy va tezkor jarayonlarda ishbay tizim samarali bo'lsa, murakkab va sifat talab etiladigan jarayonlarda vaqtbay yoki aralash tizimdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ishbay ish haqi tizimi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bevosita bog'liq bo'lib, u xodimlarning mehnat natijadorligini oshirishga rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Bunday yondashuvda ishchi kuchi samaradorligi ishlab chiqarilgan birlik mahsulot miqdori bilan o'lchanadi, bu esa korxonada uchun yuqori ishlab chiqarish intizomini shakllantirishga yordam beradi.

Mazkur ikki mehnatga haq to'lash tizimini alohida hisob schyotlarida yuritish boshqaruv hisobi nuqtayi nazaridan bir qator muhim afzalliklarni yuzaga keltiradi. Avvalo, har bir mahsulot turi bo'yicha mehnat sarfini aniq va batafsil aniqlash imkoniyati

yaratiladi. Bu esa tannarx shakllanish jarayonini shaffoflashtiradi hamda har bir mahsulot birligiga to'g'ri keladigan real mehnat xarajatlarini hisoblashni ta'minlaydi.

Shuningdek, sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida mehnat xarajatlarini alohida schyotlarda aks ettirish mehnat unumdorligini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi. Korxonalar rahbariyati qaysi ishlab chiqarish uchastkalarida yoki qaysi mahsulot turlarida mehnat samaradorligi past yoki yuqori ekanligini aniq ko'ra oladi va shu asosda optimallashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Bu jarayon ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, alohida hisob yuritish tizimi ortiqcha va samarasiz mehnat xarajatlarini tezkor aniqlash hamda ularni qisqartirish imkonini beradi. Bu esa korxonalar xarajatlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va umumiy rentabellikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Axborot-tahlil ta'minoti korxonalar boshqaruv tizimining markaziy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan komponentlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqaruv jarayonlarini o'zaro bog'lovchi muhim axborot platformasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, axborot-tahlil ta'minoti strategik rejalashtirish jarayonining ajralmas qismi sifatida korxonalar faoliyatini kompleks baholash va boshqarish imkonini beradi.

Strategik rejalashtirish bosqichida axborot-tahlil tizimi bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Avvalo, u korxonaning ichki resurslari (ishlab chiqarish quvvatlari, mehnat va moliyaviy resurslar, xarajatlar) bo'yicha tizimlashtirilgan va doimiy yangilanadigan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Bu esa rahbariyatga real holatga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, axborotning sifati, aniqligi va tezkorligi strategik boshqaruv qarorlarining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Noto'g'ri yoki kechikkan axborot asosida qabul qilingan qarorlar korxonalar faoliyatida moliyaviy yo'qotishlar, resurslarning samarasiz sarflanishi va raqobatbardoshlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy korxonalarda integratsiyalashgan axborot-tahlil tizimini joriy etish dolzarb va ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Bunday tizim barcha boshqaruv darajalarini yagona axborot maydonida birlashtiradi, ma'lumotlar oqimini avtomatlashtiradi va real vaqt rejimida tahliliy hisobotlar shakllantirish imkonini beradi. Natijada strategik rejalashtirish jarayoni ilmiy asoslangan, tizimli va samarali boshqaruv mexanizmiga aylanadi.

Texnik-iqtisodiy asosning mazmuni va ahamiyati bu tadqiqotda taklif etilgan ilmiy yangiliklardan biri - bu korxonaning to'liq ishlab chiqarish quvvatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan texnik-iqtisodiy asosdan strategik rejalashtirishda foydalanishdir.

Texnik-iqtisodiy asos quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish quvvatining texnik imkoniyatlari;
- mavjud resurslar (xomashyo, mehnat, kapital);
- ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi;
- mahsulot tannarxi va rentabellik ko'rsatkichlari;
- bozordagi talab prognozi.

Texnik-iqtisodiy asosida korxonalar faoliyatining optimal ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi va resurslardan to'liq foydalanish darajasi baholanadi.

Mazkur elementlarning integratsiyalashgan tahlili natijasida texnik-iqtisodiy asos korxonaga optimal ishlab chiqarish hajmini aniqlash imkonini beradi. Bu esa mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish darajasini oshirish, ortiqcha resurs sarfini kamaytirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini muvozanatli tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada korxonaga nafaqat ichki samaradorlikni oshiradi, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida texnik-iqtisodiy asosdan strategik rejalashtirish vositasi sifatida foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda boshqarish, resurslardan samarali foydalanish va korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modelga ko'ra, strategik rejalashtirish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

- Axborot bazasini shakllantirish
- Ishlab chiqarish quvvatini tahlil qilish
- Texnik-iqtisodiy asosni ishlab chiqish
- Strategik maqsadlarni belgilash
- Resurslarni optimallashtirish
- Qarorlar qabul qilish va monitoring

Ushbu model korxonaga faoliyatini tizimli boshqarish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining barcha ishlab chiqarish va boshqaruv bo'limlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, korxonaga faoliyatida SAP va 1C kabi ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlaridan keng foydalanish orqali barcha birlamchi ma'lumotlarni yagona integratsiyalashgan axborot bazasiga kiritish taklif etiladi.

Ushbu yondashuv korxonaning ishlab chiqarish, ta'minot, ombor, moliya, buxgalteriya hamda marketing bo'limlarida shakllanadigan ma'lumotlarni real vaqt rejimida tizimlashtirish va avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash imkonini beradi. Natijada axborot oqimlari fragmentatsiyalashuvining oldi olinadi hamda barcha operatsion ma'lumotlar yagona raqamli platformada jamlanadi.

ERP tizimlaridan foydalanish orqali axborot-tahlil ta'minoti jarayoni sezilarli darajada tezlashadi, chunki ma'lumotlarni qo'lda yig'ish va qayta ishlash jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bu esa boshqaruv uchun zarur bo'lgan tahliliy ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida shakllantirish, operativ hisobotlar tayyorlash hamda ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish imkonini beradi.

Shuningdek, SAP va 1C kabi tizimlar korxonaga boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki rahbariyat real vaqt rejimida yangilanib boruvchi ishonchli axborotlar asosida ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish, xarajatlarni optimallashtirish, resurslarni taqsimlash hamda eksport strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini sezilarli darajada ilmiy asoslangan va tezkor tizimga aylantiradi.

Bundan tashqari, ERP tizimlarining joriy etilishi xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobotlarni shakllantirish jarayonini ham takomillashtiradi.

Ma'lumotlarning yagona standart asosida yuritilishi korxonalar moliyaviy holatini aniq va shaffof aks ettirishga xizmat qiladi hamda xalqaro bozorlarda faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda SAP, 1C kabi ERP tizimlarini joriy etish orqali axborot-tahlil ta'minotini avtomatlashtirish boshqaruv samaradorligini oshirish, qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirish va xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobot tizimini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari boshqaruv hisobining mazmun-mohiyati va uning funksional yo'nalishlari an'anaviy hisob tizimlaridan sezilarli darajada farq qilishini tasdiqladi. Zamonaviy sharoitda boshqaruv hisobi faqat xarajatlarni qayd etish vositasi emas, balki strategik rejalashtirishni qo'llab-quvvatlash, operativ nazoratni ta'minlash, tahliliy jarayonlarni chuqurlashtirish hamda kelgusini prognozlashda muhim axborot bazasi sifatida xizmat qiluvchi kompleks tizimga aylangan.

Shuningdek, tadqiqot doirasida xarajatlarni boshqarish bo'yicha qabul qilinadigan strategik va taktik qarorlar jarayonida "absorption costing", "standard costing" va "marginal costing" usullarining amaliy imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida mahsulot tannarxini aniqlashda, ayniqsa qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini asoslashda marginal costing usuli eng maqbul va ishonchli axborot manbai sifatida ajralib turishi aniqlandi. Ushbu usul xarajatlarni faqat o'zgaruvchan tarkib asosida shakllantirib, doimiy xarajatlarni davr xarajatlari sifatida aks ettirishi orqali qarorlar qabul qilish jarayonining aniqligi va tezkorligini oshiradi.

Bundan tashqari, marginal costing usuliining qayta ishlash sanoatida, xususan sabzavot-poliz mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida amaliy qo'llanilishi bir qator muammolarni bartaraf etishda samarali ekanligi asoslandi. Bu yondashuv hisob-kitob jarayonlarini soddalashtiradi, xarajat va daromad o'rtasidagi bog'liqlikni aniqroq baholash imkonini beradi, foyda markazlari faoliyatini tahlil qilishni kengaytiradi hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu tizimni amaliyotga joriy etish resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va mahsulotlarning bozor raqobatbardoshligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27 iyuldagi, "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4406-son Qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 08 apreldagi PQ-136-sonli "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.
3. Xasanov B.A. (2003) "Boshqaruv hisobi:nazariya va uslubiyot" T.: «Moliya» nashriyoti, 248 b
4. Drury, C. (2021). Management and Cost Accounting (8th ed.). Cengage Learning.

5. ACCA Performance Management Integrated Workbook. (2024) Kaplan Financial Limited, 506 pages
6. Eshonqulov L.A. (2021) "Meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv hisobini takomillashtirish" Avtoreferat. T.
7. Tashnazarova D. S (2023) "Korxonalarda mahsulot tannarxi hisobini takomillashtirish" Avtoreferat. T.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

